XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 1-may VI-66-70-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi VI-64-38-8-108-Q/24-sonli “Joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi qaroriga asosan ajratilgan va ishlatilmay qolgan mablag‘ni tuman mahalliy byudjetiga qaytarib olish va ajratishsh to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi byudjet kodeksi 119, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman byudjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning takliflari xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasida eshtilib va ko‘rib chiqilganligini inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 119, 126-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi VI-64-38-8-108-Q/24-sonli qaroriga asosan, Oltinsoy tuman Soliq inspeksiyasining hojatxonasini ta’mirlashda kerak bo‘ladigan qurilish materiallari sotib olish uchun ajratilgan 127 000 000 so‘m mablag‘dan foydalanilmasdan turgan 27 000 000 so‘m mablag‘ tuman mahalliy byudjetiga qaytarib olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abduraimov) hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Saidaxmedov) birgalikda:

Belgilangan tartibda tuman mahalliy byudjetiga qaytirib olingan 27 000 000 so‘m mablag‘ tuman Soliq inspeksiyasiga terminal (sayt) qurilmasini xarid qilish uchun) yo‘naltirilsin.

4. Tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘larning to‘g‘ri sarflanishi to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5.“Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

MAXMATRAYEMOV
BAXROM OMONOVICH